

AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB DARSLARNI TASHKIL ETISH BOSHLANG'ICH TA'LIMNING ENG MUHIM JIHATI

*Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani
343- mактабning boshlangich sinf o'qituvchisi
Zukurova Umida Karimovna*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalaridan unumli foydalangan holda dars sifat va samaradorligiga erishish usullari haqida fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, ta'larning ushbu bosqichida o'quvchining mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta'limg dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsiyonal xususiyatlarini mustahkamlash borasida ham ma'lumotlar betilgan.

Kalit so'zlar: internet tarmog'i, amaliy topshiriqlar, multimediali ta'limg dasturlari, taqdimotlar, loyiha, didaktika.

*Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun nimani o'qitsang o'shang, kimni o'qitsang
o'shalarga mehr qo'y mog'ing zarur.*

B.Kluchovskiy

O'quvchining fanni o'zlashtirish qobiliyati, xotirada saqlash imkoniyati boshlang'ich sinfda ancha keng bo'ladi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'limg jarayoniga joriy etish o'quv faoliyati samaradorligini oshiradi. Ma'lumki, boshlang'ich ta'limg - ta'limg tizimining poydevori hisoblanib, o'quvchilarni o'qitish sifati unga bog'liq bo'ladi va bu boshlang'ich maktab o'qituvchisi zimmasiga katta

mas'uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida ta'lim tizimida boshlang'ich maktab "ko'nikmalar maktabi" bo'lib keldi, ya'ni o'quvchi keyingi ta'lim olish uchun o'qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko'nikmalarni o'zlashtirishi kerak bo'lgan ta'lim bosqichi sifatida qaralgan. Bugungi kunda u ta'lim tizimida bolaning birinchi tajribasi - ta'lim olish kuchlarini sinash joyi bo'lib qolishi kerak, ya'ni ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlanтирish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta'lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsiнал xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Bugungi kunda o'quvchilarning aynan manna shu sifatlari ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonida uni muvaffaqiyatli bilim olish uchun zarur bo'lgan asosiy jarayonlar sifatida fikrlashni, tasavvurni rivojlanтирishga yo'naltirilgan katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. O'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini samarali tashkil qilish ta'minlanadi. Bunda ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish oson bo'lib qoldi, butun o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Dars jarayonida tayyor multimediali mahsulotlari va kompyuter ta'limi dasturlaridan, o'quv va sinfdan tashqari ishlarda Internet tarmog'i vositalaridan foydalanib, multimediali ta'lim dasturlari va taqdimotlar, loyiҳalar yaratildi. Axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlarda qo'llash mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish kata samara beradi. Ona tili va rus tili darslarida savodxonlikni oshirish bo'yicha mashqlar yordam beradi, bunda bolalar kompyuterlarda turli xildagi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali- mashq, nazorat-mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlashmumkin.

Unga fanga oid qoidalarni joriy o'rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta variantlarda berilgan grammatika-orfografik mavzular bo'yicha boy va turli-tuman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi. 1-sinfda o'qish darsida elektron o'quv qo'llanmalari tayyorlab, foydalanish mumkin. Unda so'zni tovushli- harfli tahlil qilish, so'zning bo'g'inlari tuzilishi, ba'zi orfogrammalar o'rganilishi turli qiziqarli ko'rgazmali va ovozli material berish mumkin. Yorqin rasmlar, g'aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagi o'quvchilarda ona tiliga qiziqishni oshirishga yordam beradi, o'yin shaklida o'quv materiali bilan tanishish imkonini beradi, o'zini nazorat qilish va o'quv refleksiyasi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. dars bosqichlarini ishlab chiqish lozim. Matematika darslarida "Didaktik o'yinli masalalar" dasturlarini tayyorlab, foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinfda o'rganiladigan ko'plab mavzular bo'yicha turli materiallar berilgan. Turli murakkablik darajasidagi turli xildagi topshiriqlar har bir o'quvchining idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari Internetdan mustaqil foydalanishni, kerakli axborotni tanlashni, uni saqlab qolish va taqdimotlar tuzish yoki turli xildagi loyihalarni ishlab chiqish va bajarishda keyingi ishlarida foydalanishni biladilar. 2-sinfдан о'quvchilar faqat daftarda emas, balki bevosita kompyuterda ham topshiriqlarni bajara oladilar. O'quvchilar kompyuter bilan ishlash birinchi ko'nikmalarini oladilar, o'zlarining nazariy bilimlarini doimiy chuqurlashtirib va amaliy ko'nikmalarini takomillashtirib boradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yunusova D.I. Matematikani o'qitishning zamonaviy texnologiyalari, (darslik) T.: 2007
2. Yusupov A. Ye. Matematik kechalar.- Toshkent: "O'qituvchi", 1977.
3. Yagudayev B. Ya. Ajoyib sonlar olamida.- Toshkent: "O'qituvchi", 1979.
4. Abdurahmonov B., Matematik induksiya metodi Toshkent, 2008 y.